



O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYA SOHASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR TAHLILI

To'laganova Ruhshona Farrux qizi,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi, Toshkent, O'zbekiston.

Email: rukshonatulyaganova@gmail.com

ORCID: 0009-0008-6957-4818

Saidov Rasulbek Boltaboyevich,

Ilmiy rahbar: TDIU "Baholash ishi va investitsiyalar" kafedrasida dotsenti

THE ANALYSIS OF REFORMS IN THE FIELD OF INVESTMENT IN UZBEKISTAN

Tulaganova Rukshona Farrukh qizi,

Student of Tashkent State University of Economics, Tashkent, Uzbekistan.

Email: rukshonatulyaganova@gmail.com

ORCID: 0009-0008-6957-4818

Saidov Rasulbek Boltaboyevich,

Research advisor: Associate Professor of "Evaluation work and investments" department of TSUE

JEL Classification: G1,G32

Annotatsiya: Mazkur maqola investitsiya, investitsiya muhiti va uning jozibadorligi kabi hozirgi kunda dolzarb bo'lgan tushunchalarni va ularga ta'sir etuvchi omillar, hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati va sohadagi islohotlar, mamlakat investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, mamlakatda 2022-yildan buyon har yili o'tkazilayotgan Toshkent xalqaro investitsiya forumi va uning natijalari, mamlakatga jalb qilingan xorijiy kapital hajmidagi salmog'i va ahamiyatini tahlil qiladi.

Abstract: This article describes the current concepts of investment, investment environment, and its attractiveness and the factors affecting them, the investment policy and reforms in the field currently implemented in the Republic of Uzbekistan, measures aimed at increasing the attractiveness of the country's investment

environment analyzes the Tashkent International Investment Forum, which has been held in the country every year since 2022, and its results, the weight and importance of foreign capital attracted to the country.

Kalit so'zlar: investitsiya, investitsiya siyosati, investitsiya muhiti va uning jozibadorligi, Toshkent xalqaro investitsiya forumi

Keywords: investment, investment policy, investment environment and its attractiveness, Tashkent international investment forum

Kirish. Hozirgi globallashuv jarayonida barcha mamlakatlar o'z iqtisodiyotini rivojlantirish va barqarorlashtirish, makroiqtisodiy ko'rsatichlarini yaxshilash orqali dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari qatoridan joy olishni asosiy maqsadi sifatida belgilaydi. Rivojlangan iqtisodiyot mamalakat

makroiqtisodiy ko'rsatkichlari barqaror holda o'sishi bilan bir qatorda mamlakatning jahon bozorida har tomonlama hissasi oshishi, aholi hayoti farovonligi darajasi ijobiy ko'rsatkichlar ko'rsatishi bilan ham uzviy bog'liqdir. Mamlakatni har tomonlama rivojlantirishning eng samarali yo'llaridan biri bu – mamlakatga jalb qilinadigan ichki va xorijiy investitsiyalar salmog'ini oshirishdir. Ko'plab rivojlangan mamlakatlar o'z davlatini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish yo'lida aynan mamlakatga xorijiy kapitalni jalb qilish usulidan keng foydalangan. Zero, mamlakatga kirib kelgan investitsiyalar kapitalini yo'naltirish orqali mamlakatda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish kabi sohalar rivoj topadi, mamlakat iqtisodiyoti esa diversifikatsiyalanadi. Iqtisodiyoti qishloq xo'jaligiga asoslangan qoloq yoki endi rivojlanayotgan mamlakatlarga xorijiy investitsiyalar bilan bir qatorda sanoatning avtomobilsozlik, elektronika, turizm, IT kabi yangi tarmoqlari va butunlay yangi sohalar kirib keladi. Ta'kidlash joizki, xorijiy investitsiyalar kirib kelishi natijasida mamlakatga yangi jahon standartlariga mos texnika-texnologiya vositalari, ishlab chiqarish qurilmalari, franshiza, nou-xaular bilan birgalikda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqaruvda yangi cho'qqilarga erishish imkonini beruvchi nomoddiy aktivlar – xorijlik investorlar, boshqaruvchilar, ishchi va mutaxassislarning yangi bilim va tajribalariga asoslangan nazariy ma'lumotlar va amaliy ko'nikmalari kirib keladi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatda mavjud sanoat tarmoqlari rivoji, yuqori sifat va qulay narxni uyg'unlashtiruvchi eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarilishi, eksport hajmi va salohiyati oshishi, mamlakat tovar balansida eksportning salmog'i ortishiga sabab bo'ladi. Jalb qilingan xorijiy kapitalning retsipient mamlakatlar uchun yana bir asosiy

foydalaridan biri mavjud infratuzilmaning takomillashuvi va aholi uchun qulay shart-sharoitlarning yaratilishidir.

Mamlakatimiz O'zbekiston ham ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanayotgan va jahon mamlakatlari orasida o'z o'rniga ega bo'lib borayotganligi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati bilan bevosita bog'liqdir. Respublikada mustaqillikka erishilganidan buyon mamlakat rivojida jalb qilingan kapitalning ahamiyati anglashilgan holda uzoq yillarga mo'ljallangan samarali investitsiya siyosati va uni amalga oshirish strategiyalari belgilangan. Olib borilayotgan va doimiy tarzda takomillashtirilib borilayotgan investitsiya siyosati, mamlakat investitsion muhitini investorlarga yanada jozibador qilishga qaratilgan chora-tadbirlar respublikamizga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmining yildan-yilga o'sishiga xizmat qilyapti.

Respublikamizga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmini oshirish va bu orqali O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 28-yanvaridagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonining inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish yo'nalishida amalga oshirilishi ko'zlangan "Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko'rish [1]" haqidagi 26-maqsadi mamlakatimiz investitsiya muhitining investorlar uchun qulay va jozibadorligi qanchalik muhim ekanining yaqqol dalilidir.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish O'zbekiston Respublikasini va uning hududlarini

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning davlat vazifalari bajarilishini ta'minlaydigan investitsiya siyosatini amalga oshirish, investitsiyalar samaradorligini oshirish, O'zbekiston Respublikasi hududidagi turli investitsiya obyektlariga qo'yilmalar uchun xavfsiz shart-sharoitlarni ta'minlash maqsadida davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi [2].

Material va metod. Investitsiya va investitsiya muhiti keng qamrovli tushunchalar bo'lib, ularga turli mamlakatlar me'yoriy hujjatlarida, xalqaro moliya tashkilotlari faoliyatiga oid rasmiy hujjatlarda turlicha izoh berilgan. Avvalambor, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-sonli Qonunida bu atamaga quyidagicha ta'rif berilgan: "Investitsiyalar — investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boylıklar

hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin: mablag'larni, shu jumladan pul mablag'larini (shu jumladan chet el valyutasini), maqsadli bank omonatlarini, paylarni, ulushlarni, aksiyalarni, obligatsiyalarni, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlarni; ko'char va ko'chmas mol-mulkni (binolar, inshootlar, uskunalar, mashinalar va boshqa moddiy qimmatliklarni) [3]". Mahalliy va jahon iqtisodchi olimlari, soha mutaxassislari o'z maqolalari, monografiyalari va ilmiy asarlarida turlicha yondashgan holda ta'rif berganlar va investitsiya, mamlakat investitsiya muhiti va uning jozibadorligi borasida o'z fikr-mulohazalarini bildirganlar. Shularni inobatga olgan holda ushbu tushunchani yoritib bergan va bu borada o'z fikr-mulohazalarini bildirgan iqtisodchi olimlarning ta'riflari va munosabatlarining eng asosiylari deb bilinganlari 1-jadvalga muvofiq keltirib o'tiladi.

1-jadval

Investitsiya tushunchasining ta'riflashi¹

Muallif	Ta'rif
Y.Mitskevich (2002 y.)	Investitsiya bu daromad olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida moddiy va moliyaviy vositalarni, shuningdek, mol-mulkka hamda intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni turli faoliyat obyektlariga qo'yilma sifatida jalb qilishdir
P.Vaxrin (2002 y.)	Investitsiya – bu kapitalni joylashtirish usuli hisoblanib, bu orqali kapitalni saqlash yoki uning asl qiymatini oshirish hamda ijobiy hajmdagi daromadga ega bo'lish
A.Neshitoy (2006 y.)	Investitsiya bu foyda olish yoki boshqa samaralarga erishish maqsadida o'z yoki o'zga mamlakatning turli tarmoqlariga, tadbirkorlik loyihalari, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar ham innovatsiya loyihalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan pul mablag'larini (kapitalni) uzoq muddatga joylashtirishdir
U.Sharp, G.Aleksander, J. Beyli (2018 y.)	Investitsiya – bu kelajakda daromad olish uchun bugun o'zingdan ajratilishi kerak bo'lgan kapitaldir

¹ Jadval muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida tuzilgan.

A.Vahabov, Sh.Xajibakiev, N.Muminov (2010 y.)	Investitsiyalar – foyda olish yoki ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obyektlariga va boshqa faoliyat turlariga qo'yiladigan pul mablag'lari, banklarning maqsadli omonatlari, aksiyalar, boshqa qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, har qanday boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlar, intellektual boyliklardir
D.G'.G'ozibekov (2012 y.)	Investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli man-baalardan mablag'lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, risklar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko'zlangan samarani olishdan iborat
N.H.Haydarov (2014 y.)	Investitsiya mulk shaklidan qat'i nazar tadbirkorlik asosida faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning ijtimoiy va iqtisodiy samara olish maqsadida o'z boyliklarini qonun doirasida bo'lgan har qanday tadbirkorlik obyektiga sarflashdir
Yurii A.Rolik (2013 y.)	Investitsion jozibadorlik bu potensial investorga mavjud mablag'larni investitsiya qilish maqsadida ma'lum bir investitsiya ob'yekti boshqalariga qaraganda qanchalik jozibador ekanligini baholashga imkon beradigan xususiyatlar to'plami hisoblanadi.
Elvira Sojli, Wing Wah Tham (2015 y.)	Investitsiya muhiti qanchalik qulay bo'lsa, investorning tadbirkorlik riski shunchalik past darajada bo'ladi va bu investorlarning kirib kelishini faollashtiradi. Aksincha, investitsiya muhiti noqulay bo'lsa, risk darajasi yuqori bo'ladi. Bu esa, investitsiya qabul qiluvchi tomon sarf-xarajatlarining o'sishiga olib keladi. Investitsiya muhitining holati faqat investor uchun emas, balki investitsiya qabul qiluvchi uchun ham muhimdir.
Volik Olga Andreevna (2018 y.)	Investitsion jozibadorlikning oshishi zamonaviy raqobat sharoitida kompaniyaning samarali ishlashi, rivojlanishi va o'sishiga yordam beradi.
A.N.Asaul (2013 y.)	Investitsiya muhiti – investitsiya jarayonlari kechadigan muhitdir. U mintaqada investitsiya faoliyati sharoitlarini va investitsiya riski darajasini belgilaydigan siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va boshqa omillar ta'sirida shakllanadi
Svitlana Gutkevych (2019 y.)	Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda investitsiya jarayoni bozor konyunkturasi ta'siriga, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalariga va hajmiga bog'liq.
Takhumova Oksana (2018 y.)	Korxonalarining investitsion jozibadorligi bevosita mamlakatdagi investitsiya siyosatiga va yaratilgan investitsion muhitiga bog'liq. Xususan, investitsiya muhiti uchta elementdan iborat tizim sifatida ko'rib chiqiladi: investitsiya salohiyati, investitsiya riski va qonunchilik shartlari.
Bobur Ochilov (2021 y.)	Investitsiyalarni jalb etishda muhim hisoblangan infratuzilma, davlat fiskal siyosati, loyihalar rentabelligi, talablarga muvofiq keladigan huquqiy-me'yoriy hujjatlarning amalda ishlashi kabi jihatlarni inobatga olinishi lozim.
Dovhan Y. (2016 y.)	Investitsiyalarning ahamiyati nafaqat yangi ish joylari va kapital qo'yilmalarda ko'rinadi, shuningdek, bu yangi texnologiyalar va nou-

	xaularning kirib kelishini ham ta'minlaydi. Eski qurilmalar va mashinalar yangilari bilan almashtiriladi; boshqaruvning yaxshiroq usullari joriy etiladi, kompaniyalar va butun iqtisodiyotning tarmoqlari samaradorligi oshadi.
Mollah Aminul Islam (2021 y.)	Xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishiga sabab bo'ladi, chunki xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha intensiv firmalar tashqi fondlarni jalb qilish uchun mahalliy aksiyalar bozorida o'z aksiyalarini listingdan o'tkazadi. Jamg'arma oqimi va operatsiyalarning ko'payishi moliyaviy vositachilikka bo'lgan talabni oshiradi va natijada qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanadi.


Mazkur sohadagi xorijiy va mahalliy olimlarning investitsiya tushunchasiga bergan ta'riflarini o'rganish va tahlil qilish asosida biz investitsiyaning ta'rifini quyidagicha keltirib o'tamiz: Investitsiya – bu jismoniy va yuridik shaxslarning kelajakda foyda/daromad olish va iqtisodiy samaraga erishish maqsadida mavjud moddiy mablag'lari va kapitalini mamlakat hududidagi yoki mamlakat tashqarisidagi tadbirkorlik obyektlarining barcha turlari va boshqa ijtimoiy samara keltiruvchi obyektlarga yo'naltirishdir. Bizningcha, mamlakat investitsiya muhiti jozibadorligi esa mamlakat, iqtisodiyotdagi biror tarmoq yoki alohida olingan tadbirkorlik subyekti investitsiyalarining daromadlilik, rentabellik, rivojlanish istiqbollari va investitsiya xatari darajasining baholanishi asosida investorlarni jalb qila olish qobiliyatidir.

Natijalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.

Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz. Iqtisodiyotdagi ijobiy natijalar esa ijtimoiy sohada to'planib qolgan muammolarni tizimli hal etish imkonini yaratadi. Buni hammamiz chuqur tushunib olishimiz va ishimizni shu asosda tashkil etishimiz shart. Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to'la namoyon etish choralarini ko'rishimiz kundalik hayotimizdan joy olgan eng dolzarb masalalardan biri bo'lmog'i lozim [4]", deya mamlakatga jalb qilingan

xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotni jadal rivojlantirishdagi o‘rnini va mamlakat aholisining ijtimoiy hayotdagi muammolariga yechim bo‘la olishini alohida ta’kidlaganliklari hozirgi kunda O‘zbekiston investitsiya muhitining jozibadorliginin oshirish qanchalik dolzarb masala ekanligidan

dalolat beradi. Mamlakat investitsiya muhiti va uning jozibadorligi mamlakatga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmi va salmog‘ida muhim ahamiyat kasb etar ekan, mamlakat investitsiya muhitiga ta’sir qiluvchi omillar va ularning guruhlanishini anglab yetish zarur bo‘ladi (1-rasm).




1-rasm. Mamlakat investitsiya muhitiga ta’sir qiluvchi omillar²

² Diagramma shaklidagi rasm muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida tuzilgan.

Yuqoridagi diagramma ko‘rinishidagi rasmda mamlakat investitsiya muhitiga ta‘sir qiluvchi omillar ikki yirik guruhga: ichki va tashqi omillarga ajratilganini ko‘rishimiz mumkin. Mamlakat investitsiya muhitiga ta‘sir qiluvchi ichki omillar mamlakatning ichki iqtisodiy, investitsion, fiskal, innovatsion, ijtimoiy siyosati, huquqiy-me‘yoriy va siyosiy tizimiga bevosita tayansa, tashqi omillar mamlakat tashqi iqtisodiy siyosati, u yo‘lga qo‘ygan diplomatik do‘stona aloqalar bilan bir qatorda mamlakat investitsion muhitiga bilvosita ta‘sir qiluvchi tashqi monetar holat, qo‘shni va potensial donor mamlakatlardagi iqtisodiy vaziyat, xalqaro migratsiya

jarayonlari kabi omillar bilan ham bog‘liqdir. Investitsiya muhiti makroiqtisodiyot darajasida, ya‘ni investor va aniq davlat organlari, xo‘jalik subyektlari o‘rtasidagi munosabatlarda o‘z aksini topadi [5].

O‘zbekiston Respublikasida mamlakat investitsiya muhiti va uning jozibadorligini oshirish, mamlakatda investorlarning huquqlarini himoya qilishni ta‘minlash va bu bo‘yicha mustahkam qonun tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish, ularni ayrim turdagi soliq va bojlardan ozod qilish yoki imtiyoz berish, preferensiyalar taqdim etish orqali mamlakatimizga kirib kelayotgan investitsiyalar o‘shish sur‘ati yildan yilga oshib bormoqda (2-rasm).



2-rasm. 2017-2023-yillarda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning o‘shish sur‘ati (% da)³

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi – www.stat.uz

Yuqoridagi grafik ko'rishidagi rasmdan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda asosiy kapitalga xorijdan o'zlashtirilgan investitsiyalar o'sish sur'ati yildan-yilga yaxshilanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Qaroriga [6] asosan ishlab chiqilgan "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish; investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasini va bir qator investitsiya siyosatiga oid qonunlarni tanqidiy tahlil qilish, xorijiy mamlakatlarning bu sohadagi tajribasini o'rganish natijasida to'g'ridan-to'g'ri amal qiladigan, investitsiya faoliyati, xorijiy investitsiyalarning kirib kelishini qo'llab-quvvatlaydigan, xorijiy investorlarning huquqlarini kafolatlaydigan "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish va kiritish kabi chora-tadbirlarni to'liq yoki qisman amalga oshirish natijasida investitsiyalarning o'sish sur'ati ijobiy

natijalar ko'rsatgan holda 210-2019 yillarda barqaror o'sgani, 2020-yildagi pandemiya sababli bir muddat Ta'kidlash joizki, mamlakatimizga xorijdan jalb etilgan yillik investitsiyalar hajmi 2017-yilda 72155.2 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich deyarli 11 barobar ortgan holda 774365 mlrd. so'mga yetdi [7].

Yurtimizda xorijdan jalb etilayotgan investitsiyalar hajmi va mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmida uning salmog'ini oshirish, rivojlangan chet davlatlari va xorijlik investorlarga mamlakatimiz imkoniyatlari va investitsiya muhiti jozibadorligini ko'rsatish maqsadida 2022-yildan buyon Toshkent shahrida Toshkent xalqaro investitsiya forumi tashkil etilmoqda. Birinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi yakunlari bo'yicha 7,8 mlrd dollarlik aniq shartnomalar va investitsiyaviy bitimlar paketi imzolangan va qiymati 3,5 mlrd dollarlik loyihalarni amalga oshirish bo'yicha dastlabki kelishuvlarga erishilgan [8]. 2022-yilda o'tkazilgan Ikkinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumini o'tkazish jarayonida esa umumiy miqdori 11 milliard dollarni tashkil etuvchi 164 ta investitsiya bitimi va shartnomalari imzolandi [9]. Muntazam va uzluksiz ravishda tashkil etilgan investitsiya forumi natijasida mamlakatimizda joriy 2024-yilning 2-3-may kunlari o'tkazilgan Uchinchi Toshkent

xalqaro investitsiya forumi yanada ijobiy va samarali natijalarni ko'rsatdi. 93 mamlakatdan 2,5 mingdan ortiq delegatni jamlagan forum global muloqot va investitsiyaviy sohadagi ilg'or tajriba almashish maydoniga aylanib, uning

yakuniga ko'ra jami qiymati \$26,6 mlrd.ga teng kelishuvlar imzolandi [8].

Munozara. Ta'kidlash joizki, yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha bir qancha yirik kelishuvlarga erishildi (2-jadval).

2-jadval

Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi natijasida imzolangan loyihalar va ularning qiymati⁴

№	Hamkor kompaniya nomi	Mamlakat	Loyiha maqsadi	Loyiha qiymati
1.	"Data Volt" kompaniyasi	Saudiya Arabistoni	"Yangi Toshkent"da shahar infratuzilmasini qurish va yashil texnologiyalarga asoslangan "ma'lumotlar markazlarini" qurish	\$4 mlrd.
2.	"Acwa Power" kompaniyasi	Saudiya Arabistoni	Qoraqalpog'iston Respublikasida quvvati 5 GVt shamol elektr stansiyasini hamda quvvati 2 GVt bo'lgan elektr energiyasini saqlash qurilmalarini qurish	\$6,2 mlrd.
3.	"Amea Power" kompaniyasi	BAA	Qoraqalpog'iston Respublikasida quvvati 1000 MVt bo'lgan shamol elektr stansiyasini qurish	\$1,1 mlrd.
4.	"Nil Shugar" kompaniyasi	Misir	Jizzax viloyatida qand lavlagi yetishtirish va shakar ishlab chiqarish	\$500 mln.
5.	"Shaynxay Knud Interneshnl" kompaniyasi	Xitoy	Namangan viloyatida tekstil va to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	\$205 mln.
6.	"Vilmar Interneshnl" kompaniyasi	Singapur	Toshkent viloyatida oziq-ovqat mahsulotlari va chorva uchun ozuqa ishlab chiqarish	\$200 mln.

Yuqoridagi tafsilotlari keltirilgan loyihalarning amalga oshirilishi mamlakatimiz – O'zbekiston iqtisodiyoti, respublika hududiy infratuzilmasi, mamlakat

aholisining hayoti farovonligi oshishiga xizmat qiladi

Xulosa. Tadqiqot va o'rganishlarimiz natijasida aytishimiz mumkinki, yurtimiz O'zbekiston

⁴ O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi – www.miit.uz

Respublikasi investitsion salohiyati yildan-yilga ortayotgan, investitsiya muhiti yildan-yilga takomillashayotgan, investorlarga taqdim etiladigan imkoniyatlar, qulayliklar, soliq va bojdan imtiyozlar bilan ularni faol investitsiya kiritishga jalb qilayotgan davlatlar sirasiga kirmoqda. Shunga qaramasdan, xorijiy investitsiyalarning mamlakat iqtisodiyotiga ko'rsatadigan beqiyos foydasi va progressiv ijobiy ta'siri, modernizatsiya va innovatsiyani kengroq targ'ib etilishiga qo'shadigan katta hissasini hisobga olgan holda yurtimiz investitsion jozibadorligini oshirish, yanada kattaroq hajmda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning yangi

samarali, innovatsion yo'llarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilgan holda aytishimiz mumkinki, chet el investitsiyalari mamlakat iqtisodiyoti rivojiga hissa qo'shibgina qolmay, yangi bo'sh ish o'rinlari yaratilishi, ishsiz aholining ish bilan ta'minlanishi natijasida ishsizlik qisqarishi, aholining hayoti farovonlashuviga va turmush darajasi yaxshilanishi, retsiyent mamlakatning jahonda miqyosi va obro'si oshishi, eksport va savdo hajmi oshishi, texnologiya va innovatsiya sohalarida yangi yutuqlarga erishishga sababchi bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 28-yanvaridagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni
2. Ochilov B., Hoshimov J., & Butayev J. (2024). IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHDA MAMLAKAT INVESTITSION JOZIBADORLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOT (Monografiya). YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT.
3. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-sonli Qonuni.
4. www.president.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasidan parcha.
5. Ochilov, B. (2023). MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI YAXSHILASH MASALALARI. Iqtisodiyot Va ta'lim, 24(1), 75–81.



6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Qarori.

7. www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti.

8. www.miit.uz – O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining rasmiy veb-sayti.

9. www.invest.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi rasmiy veb-sayti.